



## FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 16-sentabr

141-11-163-F/25

Farg'ona tumani hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28 va 126-moddalariga, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrda «Yangi O'zbekiston» massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-32-sonli Farmoni hamda Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 5 sentabrdagi 456-11-0-F/25-sonli farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida:**

1. Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 3 sentabrdagi 456-11-0-F/25-sonli farmoyishi ijrosini ta'minlash, jumladan, Farg'ona tumani Yangi asr m.f.y. hududida qurilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivida piyodalar va veloyo'laklar qurish, yoritish chiroqlari hamda o'rindiqlar o'rnatish, sug'orish tizimlarining asosiy tarmoqlarini sotib olish xarajatlari uchun 300,0 mln.so'm miqdorida mablag' viloyat mahalliy budgetining 2025-yil 2-chorak yakuni bo'yicha daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan Farg'ona tumani mahalliy budgetiga ajratilganligi inobatga olinsin.

2.Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)ga, ajratilgan mablag' bo'yicha tuman obodonlashtirish boshqarmasining xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish, tuman g'aznachilik xizmati bo'linmasi (A.Nishonov)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3.Tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i (T.Isaqov)ga ajratilgan mablag'dan manzilli, maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

4.Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

**Farg‘ona tuman hokimi**



**Inomov X.T**